Xalq sözi

Özbekiston – kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRIŞ VA JAMIYATNI YUKSALTIRIŞ YILI

1991-yil 1-yanvardan çiqa boşlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 10-noyabr, № 236 (9407) Seşanba

Saytimizga ötiş uçun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

ELEKTROTEXNIKA SANOATIDA INVESTITSION VA INNOVATSION YANGILANILAR

Prezident Şavkat Mirziyoyev 9-noyabr kuni Toşkent viloyatining Yuqori Çirçiq tumaniga taşrif buyurib, «NURA Electric» elektrotexnika mahsulotlari işlab çiqariş zavodi faoliyati bilan tanişdi hamda elektrotexnika tarmoğida faoliyat yuritayotgan tadbirkor va investorlar bilan muloqot ötkazdi.





Elektrotexnika sanoatida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar va xorijlik investorlar bilan muloqotda sohada erişilgan natijalar sarhisob qilinib, işlab çiqarişni kengaytiriş, yangi texnologiyalarni özlaştiriş, yuqori qöşilgan qiymatli mahsulotlar tayyorlaş va eksport salohiyatini oşiriş böyiça ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Qayd etilganidek, sönggi ön yilda mamlakatimiz elektrotexnika sanoatida tub özgarişlar amalga oşirildi. Tarmoqqa 2 milliard dollar investitsiya kiritilib, 413 ta yangi işlab çiqariş quvvati işga tuşirildi. Maişiy texnika, quyoş panellari, elektron hisoblagiçlar, yuqori kuçlanişli transformatorlar kabi 100 dan ortiq turdagi yangi mahsulotlarni işlab çiqariş yölga qöyildi.

Natijada joriy yilda elektrotexnika mahsulotlarini işlab çiqariş hajmi 50 trillion sömga yetdi. Vaholanki, 2016-yilda mazkur körsatkiç 1,7 trillion sömni taşkil etgan. Tarmoqqa jalb qilingan yillik investitsiyalar 600 million dollarga, eksport hajmi esa 1 milliard 600 million dollarga yetkazildi. Ötgan davrda eksport 14 barobar oşdi.

Şu bilan birga, davlatimiz rahbari mavjud salohiyat va imkoniyatlardan hali töliq foydalanilmayotganini ta'kidladi.

Yurtimizda quyoş va şamol elektr stansiyalari, energiya saqlaş quvvatlari, yirik sanoat va infratuzilma obyektlari barpo etilmoqda. Kelgusi ön yilda xorijlik hamkorlar bilan iqtisodiyotning turli tarmoqlarida 450 milliard dollarlik loyihalarni amalga oşiriş maqsad qilingan. Bularning barçasi elektrotexnika mahsulotlari uçun katta va uzoq muddatli bozorni şakllantirmoqda.

Prezidentimiz tarmoq oldidagi navbatdagi asosiy vazifa işlab çiqariş quvvatlarini köpaytiriş bilan çeklanmasdan, katta texnologik sakraşni amalga oşirişdan iborat ekanini körsatib ötdi.

Masalan, 2030-yilgaça mamlakatimizda energiya saqlaş quvvatlarini 4,5 gigavattga yetkaziş rejalaştirilgan. Xorijlik hamkorlar uşbu loyihalarda mahalliy mahsulotlardan foydalanişga tayyor. Biroq ayrim zarur uskunalar hozirça özimizda işlab çiqarilmayapti.

Şuningdek, videokuzatuv uskunalariga içki bozordagi yillik talab 200 million dollarga yetadi, qöşni mamlakatlar bozorini hisobga olganda esa 600 million dollardan oşadi. Bankomatlarga ham ehtiyoj yuqori. Ötgan yilning özida yurtimizga 50 million dollardan ortiq qiymatdagi 9 mingta bankomat import qilingan.

Şu bois mazkur yönalişlarda mahalliy işlab çiqarişni taşkil etiş, yangi texnologiyalar va investorlarni jalb qiliş vazifalari belgilandi.

Hududlar kesimida ham yuqori qöşilgan qiymatli mahsulotlar işlab çiqariş böyiça katta imkoniyatlar mavjudligi ta'kidlandi. Jumladan, Toşkent viloyatida energiya batareyalari va elektronika uçun yupqa mis folgasi, Jizzaxda elektromobillar uçun invertorlar va zaryadlaş qurilmalari, Namanganda energiya tejamkor elektr dvigatellari, Qoraqalpoğistonda serverlar uçun uzluksiz elektr ta'minoti va sovitiş tizimlarini işlab çiqariş böyiça loyihalarni amalga oşiriş közda tutilmoqda.

(Davomi 2-betda).

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

ÖZBEKISTONNING OROLNI QUTQARIŞ BORASIDAGI TAŞABBUSLARI

Prezident Şavkat Mirziyoyev Özbekistonning Orolni qutqariş xalqaro jamğarmasiga raisligi davrida amalga oşirilişi rejalaştirilgan loyihalar taqdimoti bilan tanişdi.

Orolni qutqariş xalqaro jamğarmasi (OQXJ) 1993-yilda Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan taşkil etilgan. Ötgan yillarda mintaqa davlatlari örtasida yölga qöyilgan özaro samarali hamkorlik hamda qator xalqaro taşkilotlarning kömagi tufayli jamğarma Orol dengizi havzasi suv resurslarini kelişilgan holda boşqarişni ta'minlaşga erişdi.

Markaziy Osiyoda suv taqçilligining kuçayişiga olib kelayotgan iqlim özgarişlari va suv iste'moli köpayib borayotgan bugungi şaroitda jamğarmaning roli va ahamiyati yanada ortib bormoqda. Özbekiston 2027 – 2029-yillarda Orolni qutqariş xalqaro jamğarmasiga raislik qiladi.

Taqdimotda uşbu davr mobaynida amalga oşirilişi rejalaştirilgan loyihalar va e'tibor markazida böladigan masalalar körib çiqildi.

Suv resurslari, ekologiya va ijtimoiy-iqtisodiy yönalişlarni qamrab olgan 133 ta loyiha işlab çiqilgani ta'kidlandi. Xususan, uşbu loyihalar doirasida suv xöjaligi inşootlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qiliş, suv resurslarini taqsimlaş, hisobga oliş hamda monitoring qilişning avtomatlaştirilgan tizimlarini joriy etiş, gidrometeorologik ma'lumotlar monitoringi, toşqinlar va qurğoqçilik böyiça prognozlaş hamda erta ogohlantirişning mintaqaviy raqamli platformasini yaratiş, aholining içimlik suvi va sanitariya xizmatlari bilan ta'minlanganlik darajasini oşiriş kabi köplab çora-tadbirlar ilgari suriladi.

Mazkur loyihalarning qiymati 3,3 milliard dollarni taşkil etadi. Ular Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklaniş va taraqqiyot banki, Yaşil iqlim jamğarmasi, Global ekologik jamğarma hamda boşqa xalqaro taşkilotlar kömagida moliyalaştiriladi.

Prezidentimiz uşbu loyihalarni öz vaqtida amalga oşiriş muhimligini ta'kidlab, kelgusi yilda bajariladigan işlarga doir oylar kesimida "Yöl xaritasi"ni tasdiqlaş va ijrosini taşkil etişni topşirdi. Loyihalarni hayotga tatbiq qilişga xalqaro ekspertlar, professor-olimlar hamda xorijdagi vatandoşlarimizni ham jalb qiliş lozimligi körsatib ötildi.

(Davomi 2-betda).

DAVLATIMIZ RAHBARI AMALIY TAŞRIF BILAN TURKIYADA BÖLADI

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdoğanning taklifiga binoan Birlaşgan Millatlar Taşkilotining Iqlim özgarişi töğrisidagi Hadli konvensiyasi tomonlari konferensiyasining 31-sessiyasi (COP31) tadbirlarida iştirok etiş uçun 10-11-noyabr kunlari Antaliya şahrida böladi.

Iqlim böyiça global sammitda davlatlar va hukumatlar, nufuzli xalqaro taşkilotlar va moliya institutlari rahbarlari hamda yuqori darajadagi delegatsiyalar iştirok etadi.

Anjuman kun tartibidan BMTning Iqlim özgarişi töğrisidagi Hadli konvensiyasining asosiy qoidalarini röyobga çiqariş, zamonaviy ekologik xatar va tahdidlarga qarşi kuraşiş hamda "yaşil" taraqqiyot maqsad va vazifalarini ilgari suriş borasida keng kölamli xalqaro hamkorlikni rivojlantiriş masalalari örin olgan.

Davlatimiz rahbari sammitning yalpi sessiyasida nutq sözlaydi hamda qator ikki tomonlama uçraşuv va muzokaralar ötkazadi.

Ta'kidlaş joizki, Özbekiston BMTning Hadli konvensiyasiga 1993-yilda qöşilgan. 2018-yilda mamlakatimiz Parij bitimining iştirokçisiga aylandi.

ÖzA.

Taşrif

PARLAMENTLARARO MUNOSABATLAR YANADA KENGAYADI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boşçiligidagi Özbekiston parlament delegatsiyasi Koreya Respublikasi Milliy Assambleya Spikeri Ço Çon Şik taklifiga binoan rasmiy taşrif bilan Koreya Respublikasida bölib turibdi.

Taşrif doirasida Milliy Assambleya Spikeri Ço Çon Şik, "Koreya – Özbekiston" parlamentlararo hamkorlik böyiça guruh raisi Kim Gyo Xin hamda qator davlat idoralari, ta'lim muassasalari va yirik kompaniyalar rahbarlari bilan uçraşuvlar ötkazilişi rejalaştirilgan.

Muloqotlarda ikki mamlakat parlamentlararo munosabatlarini yanada mustahkamlaş, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ta'lim, mehnat va innovatsiyalar sohalaridagi aloqalarini kengaytiriş, sun'iy intellekt hamda axborot texnologiyalari yönalişlarida hamkorlik istiqbollarini muhokama qiliş nazarda tutilgan.

Oliy Majlis Senati Axborot xizmati.

EZGU ĞOYADAN FAROVON HAYOT SARI

Har qanday siyosiy ğoyaning qiymati oxir-oqibat bitta savolga taqaladi: odamlar turmuşida nimalar özgardi? Şu bois "Yangi Özbekiston" va "Inson qadri uçun" tamoyili haqida gap ketganda, ularning nazariy ta'rifidan köra amaliy iziga, natijasiga köproq e'tibor bergan ma'qul.

Nuqtai nazar

Keling, avval tuşunçalarni aniqlab olsak. "Yangi Özbekiston" ğoyasi davlat va fuqaro örtasidagi munosabatni tubdan qayta qurişga asoslanadi. Ilgari fuqaro davlat idorasi oldida köproq iltimos qiluvçi bölib turgan bölsa, yangi yondaşuvda davlat insonga xizmat qilişi kerak. "Inson qadri uçun" tamoyili esa ana şu ğoyaning amaliy ölçovidir. Har bir islohot, har bir qaror uşbu savol bilan tekşiriladi: bu oddiy inson hayotini yengillaştirdimi, nima özgardi, loaqal şa'nini himoya eta oldimi?

Mazkur tamoyil, nazarimda, quruq siyosiy şior bölib qolmadi. 2023-yil 30-apreldagi umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya uni huquqiy asosga köçirdi. Referendumda saylovçilarning 84,51 foizi iştirok etgan. Asosiy qonundagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, normalar 275 tadan 434 taga köpaydi. Eng muhimi, Özbekiston ijtimoiy davlat deb e'lon qilindi.

Lekin qoğozdagi norma bu hali hayotiy voqelik degani emas. U tuman hokimligidagi xodimning muomalasida, maktabdagi öqituvçining maoşida, şifoxonadagi xizmat körsatiş sifatida va boşqa köplab özgarişlarda öz aksini topgandagina haqiqiy mazmun kasb etadi.

4

Biz va jahon

BARQAROR TARAQQIYOT YÖLIDAGI YANGI IMKONIYATLAR

Iqlim özgarişiga qarşi kuraşiş bugun nafaqat ekologik zarurat, balki davlatlarning iqtisodiy raqobatbardoşligi, energetika xavfsizligi va xalqaro hamkorlik salohiyatini belgilaydigan muhim omilga aylanmoqda.

Şu nuqtai nazardan, Turkiyaning Antaliya şahrida bölib ötayotgan BMTning Iqlim özgarişi töğrisidagi Hadli konvensiyasi tomonlari konferensiyasining 31-sessiyasi (COP31) Özbekiston uçun xalqaro iqlim diplomatiyasidagi iştirokini mustahkamlaş, "yaşil" investitsiyalarni jalb etiş va barqaror iqtisodiy taraqqiyotni jadallaştirişda yangi imkoniyatlar eşigini oçadi.

Sönggi yillarda iqlim özgarişi xalqaro munosabatlarning ustuvor yönalişlaridan biriga aylandi. Global haroratning kötarilişi, suv resurslarining kamayişi, qurğoqçilik va ekstremal ob-havo hodisalarining köpayişi davlatlardan nafaqat milliy darajada çoralar körişni, balki özaro kelişilgan xalqaro siyosat yuritişni ham talab qilmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo uçun iqlim özgarişi oqibatlari jiddiy ahamiyat kasb etadi. Mintaqada suv resurslaridan oqilona foydalaniş, çöllanişning oldini oliş, qişloq xöjaligini yangi iqlim şaroitlariga moslaştiriş va energetika tizimini modernizatsiyalaş dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Özbekiston uşbu jarayonlarda faol iştirok etib, iqlim masalalarini taşqi siyosat, iqtisodiy islohotlar va mintaqaviy hamkorlik bilan uzviy boğlaşga intilmoqda. COP31 ana şu yondaşuvni xalqaro maydonda ilgari suriş uçun muhim diplomatik platforma bölişi mumkin.

Özbekiston Parij bitimi iştirokçisi sifatida iqlim özgarişiga qarşi kuraşiş böyiça xalqaro majburiyatlarni amalga oşirişga qaratilgan siyosat yuritmoqda.

2

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq sözi
2026-yil 10-noyabr

ELEKTROTEXNIKA SANOATIDA INVESTITSION VA INNOVATSION YANGILANILAR

(Davomi. Boşlanişi 1-betda).

Andijonda ofis texnikalari va tayyor kabel töplamlari, Toşkent şahrida serverlar, interaktiv panellar va sensorli datçiklar, Qaşqadaryoda televizorlar uçun elektron platalar işlab çiqariş imkoniyatlaridan foydalaniş zarurligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari bunday loyihalar hisobiga içki bozor talabini qondiriş bilan birga elektrotexnika mahsulotlarining eksportini 5 milliard dollarga yetkaziş imkoniyati mavjudligini ta'kidladi.

Bu borada tarmoqni rivojlantirişning yangi yönalişlari belgilandi.

Keyingi uç yilda elektrotexnika va unga boğliq sanoat tarmoqlarida umumiy qiymati 11 milliard 600 million dollarlik 164 ta loyihani amalga oşiriş rejalaştirilgan.

Ular energetika infratuzilmasi, kabel, transformator va nasoslar işlab çiqariş, sanoat robototexnikasi va uskunasozlik, transport va elektromobillar uçun elektrotexnika, elektron komponentlar va mikroelektronika hamda maişiy texnika kabi oltita asosiy yönalişni qamrab oladi.

Har bir yönalişga mas'ul rahbarlar va asosiy buyurtmaçilar biriktirilib, tayanç investorlarni jalb qiliş, ilmiy markazlar hamda texnika oliygohlari bilan hamkorlikni kuçaytiriş vazifasi qöyildi.

Yuqori texnologik sanoatni rivojlantiriş maqsadida Nurafşon şahrida "Kelajak texnologiyalari markazi" taşkil etiladi.

Uşbu markazda faoliyat yurituvçi korxonalarga IT-park rezidentlari bilan bir xil imtiyozlar beriladi. Robotlar, elektronika va texnologik uskunalar işlab çiqariş uçun zarur xomaşyo hamda butlovçi qismlar import bojidan ozod etiladi. Mazkur yönalişdagi ilmiy işlanmalardan olingan daromadga soliq solinmaydi.

Ilmiy tadqiqotlar va sanoat örtasidagi hamkorlikni kuçaytiriş uçun "Yangi sanoat" milliy platformasi işlab çiqiladi. Şuningdek, har bir hududda tadqiqot va işlanmalar markazi yoki texnopark negizida yangi mahsulotlarni sinovdan ötkaziş maydonçalari taşkil etiladi. Ular yirik sanoat korxonalari bilan kiçik tadbirkorlar örtasidagi kooperatsiyani kengaytirişga xizmat qiladi.

Mutasaddilarga robototexnikani rivojlantiriş böyiça qaror loyihasini hamda uskunasozlik va elektronika tarmoqlarini qöllab-quvvatlaş kompleks dasturini tayyorlaş topşirildi.

Muloqotda sanoatni texnologik rivojlantirişning muhim şarti bölgan muhandislik ta'limi va malakali kadrlar tayyorlaş masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Hozirda texnika oliygohlarining 20 nafar talaba va tadqiqotçisi Koreyadagi elektronika korxonalarida tahsil olmoqda. Yaqin vaqtda ularning soni 100 nafarga yetkaziladi.

Kelgusi yildan "Bir ming muhandis-konstruktor" dasturi boşlanadi. Uning doirasida mahalliy mutaxassislar Koreya, Yaponiya, Xitoy, Turkiya va Yevropa mamlakatlariga malaka oşiriş uçun yuboriladi. Nufuzli xorijiy kompaniyalarda işlayotgan yuqori malakali vatandoşlarimizni mamlakatimizga jalb qiliş uçun munosib mehnat va iş haqi şaroitlari yaratiladi.

Tadbirda soha korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiriş masalalari ham muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, qator mahalliy elektrotexnika korxonalari öz loyihalari uçun Yevropa tiklaniş va taraqqiyot bankidan 80 million dollar jalb qilgan. Bank sanoat korxonalariga yana 2-3 milliard dollar resurs ajratişga tayyorligini bildirmoqda.

Uşbu imkoniyatdan keng foydalaniş maqsadida korxonalarni xalqaro moliya bozorlari bilan işlaşga tayyorlaş, ularning faoliyatini baholaş va xalqaro konsultantlarni jalb etiş xarajatlarini qoplaş böyiça yangi qöllab-quvvatlaş çoralari belgilandi. Xususan, har bir korxonaga 50 ming dollargaça kompensatsiya ajratiladi.

Davlat xaridlari tizimida ham mahalliy işlab çiqaruvçilar uçun qöşimça imkoniyatlar yaratiladi.

Bugungi kunda davlat xaridlari doirasida har yili 10 trillion sömlik elektrotexnika mahsulotlari sotib olinmoqda. Tadbirkorlarga qulaylik yaratiş maqsadida davlat buyurtmalarini yagona platformada aks ettiriş tizimi joriy qilindi. Endi 1-yanvardan davlat xaridlarining uç yillik rejalari oldindan e'lon qilib boriladi.

Şu bilan birga, davlat xaridlarida mahsulotni faqat eng arzon narx asosida tanlaş amaliyotidan voz keçib, uning butun xizmat muddati davomidagi xarajatlarni hisobga oliş tizimi joriy etiladi. Bunda mahsulotning xarid narxi bilan bir qatorda energiya sarfi, ta'mirlaş, servis va foydalaniş xarajatlari ham baholanadi.

Energetika obyektlarini qurişda mahalliy korxonalar iştirokini kengaytiriş maqsadida "Şaffof quriliş" platformasida mazkur soha loyihalari uçun alohida maydonça taşkil etiladi, pudratçilarga qöyiladigan talablar loyihalarning texnologik xususiyatlariga moslaştiriladi.

Içki bozorda mahalliy elektrotexnika mahsulotlariga talabni rağbatlantiriş böyiça ham yangi mexanizmlar belgilandi.

Energetika sohasidagi xususiy şeriklik loyihalarida mahalliy mahsulotlar uluşi kamida 25 foiz, kabel mahsulotlari böyiça esa 70 foiz bölişi talabi amal qilmoqda. Endilikda alohida soliq va boşqa imtiyozlardan foydalanayotgan yoki davlatdan arzon resurs olayotgan, qiymati 10 million dollardan yuqori investitsiya loyihalariga ham uşbu talablar tatbiq etiladi.

Aholi uçun qulaylik yaratiş va mahalliy maişiy texnika savdosini rağbatlantiriş maqsadida mamlakatimizda işlab çiqarilgan muzlatkiç, kir yuviş maşinasi, konditsioner va boşqa maişiy texnikalar xaridi uçun yillik 18 foiz stavkada iste'mol kreditlari ajratiş tizimi yölga qöyiladi.

Davlatimiz rahbari muloqot davomida xorijlik investorlar va mahalliy tadbirkorlarning elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirişga qaratilgan taklif va taşabbuslarini tingladi.

Şu kuni Prezident Şavkat Mirziyoyev Yuqori Çirçiq tumanidagi "NURA Electric" zavodida ham bölib, işlab çiqariş jarayonlari va tayyor mahsulotlar körgazmasi bilan tanişdi.

"NURA Electric" yuqori va past kuçlanişli elektrotexnika uskunalarini töliq texnologik sikl asosida işlab çiqarişga ixtisoslaşgan yirik korxonadir. Uning faoliyati energetika tarmoğini mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlaş, importga boğliqlikni kamaytiriş va sohada sanoat kooperatsiyasini kengaytirişga xizmat qilmoqda.

20 gektar maydonda barpo etilgan zavodga 50 million dollar investitsiya kiritilgan. Bu yerda 1 mingdan ortiq iş örinlari yaratilib, 1,5 mingdan ziyod turdagi mahsulot işlab çiqariş yölga qöyilgan. Jumladan, 0,4-500 kilovolt kuçlanişli taqsimlaş qurilmalari, nimstansiyalar, qayta tiklanuvçi energiya manbalari uçun avtomatika şkaflari, elektr şinalar va metall konstruksiyalar tayyorlanmoqda. Korxonaning yillik quvvati 25 mingdan ortiq uskunalarni taşkil etadi.

Zavod zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan. Xususan, bu yerda Yaponiyaning "Amada" kompaniyasiga mansub raqamli boşqaruvli dastgoh va presslar, şuningdek, Turkiyaning "Durma" va "Teslabend" kompaniyalarining yuqori texnologik uskunalari örnatilgan. Ularning umumiy soni 120 tadan oşadi.

Korxonaning işlab çiqariş va boşqaruv jarayonlari "SAP ERP" yagona raqamli platformasi orqali muvofiqlaştiriladi. Jarayonlarni optimallaştiriş hamda mahsulot va butlovçi qismlarni mahalliylaştiriş hisobiga mahsulot tannarxini 10 foizgaça pasaytirişga erişilgan.

Majmuada akkreditatsiyadan ötgan sinov laboratoriyasi faoliyat yuritmoqda. Mahsulotlar xalqaro ISO standartlari talablariga muvofiq işlab çiqariladi. Korxona uskunalarni töliq butlaş, mahsulotlarni öz laboratoriyasida sinovdan ötkaziş va keça-kunduz servis xizmati körsatiş imkoniyatlariga ega.

Malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlaş maqsadida "Özenergoinjiniring" aksiyadorlik jamiyati va Toşkent davlat texnika universiteti bilan hamkorlik yölga qöyilgan. Har yili universitetning 100 nafardan ortiq talabalari korxonada haq tölanadigan işlab çiqariş amaliyotini ötaydi.

Davlatimiz rahbari zavodda mahalliy xomaşyo va zamonaviy texnologiyalar asosida işlab çiqarilgan transformator stansiyalari, taqsimlaş qurilmalari hamda boşqa energetika uskunalari körgazmasini közdan keçirdi.

Şuningdek, korxonada amalga oşirilayotgan işlar, işlab çiqariş quvvatlari va istiqboldagi rejalar yuzasidan taqdimotlar bilan tanişdi, xodimlar bilan suhbatlaşib, ular uçun yaratilgan mehnat şaroitlari haqidagi fikr-mulohazalarini tingladi.

Prezidentimiz korxonaning işlab çiqariş imkoniyatlari va mahsulotlar sifatini yuqori baholadi. Içki bozor talabini qondiriş bilan birga Markaziy Osiyo va boşqa xorijiy bozorlarga eksportni kengaytiriş, sohaga yuqori malakali mahalliy mutaxassislarni jalb etiş yuzasidan tavsiyalar berdi.

– Biz faqat mahsulot emas, injiniring xizmatlarini ham eksport qilişimiz kerak. Buning uçun özimizda şakllanayotgan loyihalaştiriş va sinov laboratoriyalari imkoniyatlaridan keng foydalanişimiz zarur, – dedi davlatimiz rahbari.

Ehtiyot va butlovçi qismlar turini köpaytiriş, ularni işlab çiqariş hajmini oşiriş hamda servis xizmatlari kölamini kengaytiriş zarurligi qayd etildi.

Energetika sohasidagi loyihalarda mahalliylaştiriş darajasini oşiriş muhimligi alohida ta'kidlandi. Xususan, loyihalarni işlab çiqişda mahalliy loyiha institutlarining uluşini kamida 50 foizga yetkaziş vazifasi qöyildi.

– Özimizning loyihaçilarimizga işonişimiz, ularga şaroit yaratişimiz kerak. Xorijda öqigan, tajriba orttirgan yoşlarimiz bor. Ularning atrofida mutaxassislarni birlaştirib, buyurtma bilan ta'minlasak, bu sohani rivojlantirişga qodirmiz, – dedi Prezidentimiz.

Şu maqsadda hududlarda energetika sohasiga ixtisoslaşgan loyiha institutlarining filiallari taşkil etilişi belgilandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
ÖzA muxbirlari.

ÖZBEKISTONNING OROLNI QUTQARIŞ BORASIDAGI TAŞABBUSLARI

(Davomi. Boşlanişi 1-betda).

Taqdimotda Özbekistonning OQXJga raisligi davridagi ustuvor masalalar ham muhokama qilindi. Jamğarma tuzilmasi va şartnomaviy-huquqiy bazasini takomillaştirişni davom ettiriş, uning organlari vakolatlarini aniq taqsimlaşni ta'minlaş, Afğoniston bilan konstruktiv hamkorlikni mustahkamlaşga alohida ahamiyat beriladi. Jamğarma kun tartibini Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uçraşuvlari qarorlari bilan uyğunlaştiriş va boşqa köplab masalalar e'tibor markazida böladi.

Şuningdek, jamğarma faoliyatini ilmiy-tahliliy qöllab-quvvatlaş masalasi ham körib çiqildi. Bunda "Toşkent irrigatsiya va qişloq xöjaligini mexanizatsiyalaş muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti uning taşabbuslarini amalga oşirişda ilmiy-tahliliy platforma böladi.

Şu maqsadda universitet faoliyati transformatsiya qilinadi. Ta'lim va tadqiqot jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qiliş işlari jadallaşadi, ekologik tiklaniş va suv tejamkorligi böyiça tadqiqotlar kengaytiriladi, zamon talablaridan kelib çiqib ilğor kadrlarni tayyorlaşga yondaşuv kuçaytiriladi.

Xususan, Amudaryo va Sirdaryo havzalari böyiça ma'lumotlarning yagona bazasi yaratiladi, çöllanişga qarşi mintaqa olimlari bilan qöşma loyihalar işlab çiqilib, investitsiya va grant mablağlari jalb qilinadi, Markaziy Osiyo va Afğoniston uçun suv xöjaligi böyiça bakalavriat va magistratura dasturlari işga tuşiriladi.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga Özbekistonning Orolni qutqariş xalqaro jamğarmasiga raisligi davrida rejalaştirilgan çora-tadbirlarni öz vaqtida, sifatli va töliq amalga oşiriş, bunda mutasaddi vazirlik va idoralar tomonidan qöşni davlatlar bilan aloqalarni yanada faollaştiriş, viloyat hokimlarining iştirokini ta'minlaş, qöşma ta'lim va tadqiqotlar orqali mintaqada suv diplomatiyasini yangi bosqiçga olib çiqiş yuzasidan qator topşiriqlar berdi.

ÖzA.

Qardoşlik riştalari

ÖZBEK – QOZOQ MADANIY HAMKORLIGI RIVOJLANMOQDA

Özbek va qozoq xalqlari – tili, dini va madaniyati bilan bir-biriga çambarças boğlangan ellar. Ajdodlarimiz ming yillar davomida yonma-yon yaşab, hayotning quvonç va taşvişlarini, yaxşi-yomon kunlarni birgalikda boşdan keçirib, taqdirdoş bölib kelişgan.

Bu qardoşlik keyingi yillarda ayniqsa mustahkamlanib, yangiça mazmun va ruh bilan boyib bormoqda.

Bu borada Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev hamda Qozoğiston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning siyosiy irodasi va amaliy harakatlari hal qiluvçi rol öynamoqda. Xususan, ijodkor ziyolilarimizning yaqin hamkorligi yangi bosqiçga kötarildi. Mamlakatlarimizda özaro adabiyot va madaniyat kunlarining ötkazilişi ezgu an'anaga aylandi.

Yurtimizda naşr etilgan 100 jildlik "Turkiy adabiyot durdonalari" töplamining 10 jildi qozoğistonlik mualliflar ijodiga bağişlangan. Qozoğiston Yozuvçilar uyuşmasining "Turkiy olam adabiyoti" loyihasi doirasida qardoş mamlakatlarning önlab adiblari qatorida Toğay Murod, Erkin A'zam, Xayriddin Sulton, Nazar Eşonqul, Abduqayum Yöldoşev kabi yozuvçilarimiz, iste'dodli şoirlarimizning asarlari qozoq tilida naşr etilmoqda.

Joriy yilning sentyabr oyida Turkiy madaniyat va meros fondi, Özbekiston hamda Qozoğiston Yozuvçilar uyuşmalari hamkorligida Toşkent şahrida ötkazilgan "Turkiy dunyoning ma'naviy merosi: adabiyot – davrlar va avlodlar muloqoti" xalqaro forumi bu borada muhim ahamiyat kasb etdi. Anjuman davomida ijodiy suhbatlar, muşoira va mahorat saboqlari, taqdimotlar uyuştirildi, istiqboldagi rejalar muhokama qilindi. Toşkent viloyatining Böstonliq tumanidagi 34-umumta'lim maktabiga taniqli qozoq yozuvçisi Rahmatulla Rayimqulov nomi berilib, qiziqarli va sermazmun uçraşuvlar bölib ötdi.

Bu kabi madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirişda Qozoğiston Yozuvçilar uyuşmasi raisi Mereke Kulkenovning ham munosib hissasi bor. Oqsoqol adib ellik yildan ziyod ijodiy va ijtimoiy faoliyatini umumturkiy döstlik va qardoşlikni, mintaqamiz adabiy muhitini ravnaq toptirişga bağişlab kelmoqda.

Atoqli ijodkor va jamoat arbobi şu kunlarda tabarruk 75 yoşga töldi. Özbekiston Prezidentining farmoniga binoan yaxşi qöşniçilik, madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirişga qöşgan munosib hissasi, yoş avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, özaro hurmat hamda bağrikenglik ruhida tarbiyalaş borasidagi ibratli faoliyati, mamlakatlarimiz xalqlarining köp asrlik döstlik va hamjihatligini yanada mustahkamlaş yölidagi ulkan xizmatlari uçun Mereke Kulkenov Özbekiston Respublikasining "Döstlik" ordeni bilan mukofotlandi.

> **Ijodkor ziyolilarimizning yaqin hamkorligi yangi bosqiçga kötarildi. Mamlakatlarimizda özaro adabiyot va madaniyat kunlarining ötkazilişi ezgu an'anaga aylandi. Yurtimizda naşr etilgan 100 jildlik "Turkiy adabiyot durdonalari" töplamining 10 jildi qozoğistonlik mualliflar ijodiga bağişlangan.**

Şu munosabat bilan mamlakatimizning Olmaota şahridagi Boş konsulxonasida bölib ötgan tantanali marosimda Özbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatçisi Xayriddin Sultonov Mereke Kulkenovga davlatimizning yuksak mukofotini topşirdi va Prezidentimiz tabrigini anjuman iştirokçilariga öqib eşittirdi.

Mereke Kulkenov yuksak e'tibor uçun Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Miromonoviç Mirziyoyevga öz nomidan va Qozoğiston ijodiy jamoatçiligi nomidan çuqur minnatdorlik bildirdi.

Ma'lumki, Prezidentimizning 2026-yil 5-fevraldagi "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nişonlaş töğrisida"gi qarorida mamlakatimizda va çet ellarda bu borada ilmiy-ma'rifiy tadbirlar ötkaziş vazifasi belgilangan. Hozirga qadar AQŞ, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Estoniya kabi davlatlarda mavzuga oid ilmiy konferensiyalar, badiiy va hujjatli filmlar namoyişlari bölib ötdi.

Sohibqiron Amir Temur tavalludining şonli sanasi munosabati bilan Olmaota şahridagi "Alatov" kinoteatrida özbek kinoijodkorlari tomonidan suratga olingan "Uluğ amir va donna Mariya" filmi tomoşabinlarga taqdim etildi. Unda qozoğistonlik davlat va jamoat arboblari, tarixçi olimlar, adabiyot, madaniyat va san'at namoyandalari, ommaviy axborot vositalari vakillari, şuningdek, ssenariy muallifi Xayriddin Sulton hamda kartinaning badiiy rahbari, kinorejissyor Jahongir Qosimov iştirok etdi.

Keng kölamli tarixiy va zamonaviy jarayonlarni qamrab olgan, taniqli özbek va xorij aktyorlari suratga tuşgan mazkur film tomoşabinlarda katta taassurot qoldirdi.

Qozoq diyorida bölib ötgan uçraşuv va muloqotlar muştarak ötmiş va kelajak bilan boğlangan xalqlarimiz örtasidagi madaniy hamkorlik yanada mustahkamlanib borayotganini yana bir bor isbotladi.

Orif ODILOV.

BARQAROR TARAQQIYOT YÖLIDAGI YANGI IMKONIYATLAR

1

Mamlakatda qayta tiklanuvçi energiya manbalarini rivojlantiriş, energiya samaradorligini oşiriş, tabiiy resurslardan oqilona foydalaniş va iqtisodiyot tarmoqlarida ekologik barqarorlikni ta'minlaş böyiça islohotlar olib borilyapti. Bu jarayonda iqlim diplomatiyasi alohida örin tutadi. U ilğor texnologiyalarni jalb etiş, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytiriş, milliy manfaatlarni himoya qiliş va mintaqaviy taşabbuslarni ilgari surişni ham öz içiga oladi.

Özbekistonning Orolböyi mintaqasida ekologik vaziyatni yaxşilaşga qaratilgan taşabbuslari bunga yaqqol misoldir. COP31 doirasida uşbu tajribani xalqaro hamjamiyatga taqdim etiş, Orolböyida amalga oşirilayotgan loyihalar uçun qöşimça moliyaviy va texnologik resurslarni jalb qiliş imkoniyatlari mavjud.

Yana bir jihati, bugungi kunda "yaşil" iqtisodiyotga ötiş Özbekistonning uzoq muddatli rivojlanişida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizning bu boradagi siyosati resurslardan samarali foydalaniş, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiriş va innovatsion texnologiyalarni joriy etiş orqali iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlaşga qaratilgan. Xususan, quyoş va şamol energetikasini rivojlantiriş böyiça amalga oşirilayotgan loyihalar uşbu özgarişlarning amaliy ifodasidir. Mamlakatda mazkur energiyalarga ösib borayotgan talab qayta tiklanuvçi energetikaga investitsiya kiritiş uçun qulay şaroit yaratadi.

Şu bilan birga, "yaşil" iqtisodiyot faqat energetika sohasi bilan çeklanmaydi. Sanoat korxonalarida energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etiş, suvni tejaydigan suğoriş tizimlarini kengaytiriş, ekologik transportni rivojlantiriş va çiqindilarni qayta işlaş ham uşbu jarayonning ajralmas qismidir.

Biroq "yaşil" iqtisodiyotni rivojlantiriş katta hajmdagi investitsiyalarni talab qiladi. Şu sababli iqlim moliyasi COP31 kun tartibida Özbekiston uçun eng muhim masalalardan biri bölişi mumkin. Xususan, "yaşil" obligatsiyalar, imtiyozli kreditlar, grantlar, davlat-xususiy şeriklik mexanizmlari va xalqaro iqlim jamğarmalari orqali moliyalaştiriş manbalarini kengaytiriş muhim ahamiyatga ega. Şu jihatdan COP31 Özbekiston uçun aniq investitsiyaviy takliflarni xalqaro hamkorlarga taqdim etiş va yangi şeriklik munosabatlarini şakllantiriş maydoniga aylanadi.

Şuni ta'kidlaş kerakki, Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslari, transçegaraviy daryolar, energetika tizimlari va qişloq xöjaligi özaro çambarças boğliq. Özbekiston bu borada köp tomonlama muloqotni mustahkamlaş, suv va energetika sohalarida özaro manfaatli hamkorlikni rivojlantiriş hamda iqlim özgarişiga moslaşiş böyiça qöşma taşabbuslarni ilgari suriş imkoniyatiga ega.

Iqlim siyosati samaradorligi esa faqat "issiqxona gazlari" çiqindilarini qisqartiriş bilan ölçanmaydi. Uning muhim mezonlaridan biri aholi hayoti va iqtisodiyotning iqlim xavflariga nisbatan bardoşliligini oşirişdir.

Özbekiston şaroitida bu, avvalo, suv tanqisligiga moslaşiş, qişloq xöjaligida hosildorlikni saqlaş, issiqlik tölqinlarining aholi salomatligiga ta'sirini kamaytiriş va tabiiy ofatlarga tayyorgarlikni kuçaytirişni anglatadi.

Qolaversa, xalqaro iqlim konferensiyalarining ahamiyati ularda qabul qilingan bayonotlar bilangina emas, balki erişilgan kelişuvlarning amalda qanday bajarilişi bilan ham belgilanadi. Şu bois Özbekistonning COP31 doirasidagi iştirokini aniq iqtisodiy va institutsional natijalarga yönaltiriş muhim. Bunda investitsiyaga tayyor "yaşil" loyihalar portfelini şakllantiriş, xalqaro moliyalaştiriş mexanizmlaridan foydalaniş salohiyatini oşiriş va davlat hamda xususiy sektor örtasidagi hamkorlikni mustahkamlaş ustuvor vazifalar bölib qolmoqda.

COP31 Özbekiston uçun xalqaro iqlim diplomatiyasidagi iştirokini yangi bosqiçga olib çiqiş va "yaşil" iqtisodiyotga ötiş jarayonini jadallaştiriş imkoniyati bölib, endilikda asosiy vazifa global iqlim taşabbuslarini milliy iqtisodiyotning aniq ehtiyojlari bilan uyğunlaştiriş, xalqaro kelişuvlarni amaliy loyihalarga aylantirişdan iborat.

Suriya TÖRAYEVA,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Xalqaro iqtisodiyot kafedrasi dotsenti.

Şu yil yakuniga qadar Toşkent şahrining Olmazor tumanida «Yagona kriminogen ma'lumotlar platformasi» sinov tariqasida işga tuşiriladi va 2028-yildan boşlab u yurtimizning barça hududida bosqiçma-bosqiç joriy etiladi.

IQTISODIY ZARURAT VA IJTIMOIY MAS'ULIYAT

Globallaşuv şaroitida mehnat migratsiyasi dunyo iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylandi. Insonlar munosib iş, yuqori daromad, kasbiy ösiş va farovon hayot izlab bir mamlakatdan boşqasiga yöl olyapti. Bugun dunyoda 168 million kişi xorijiy mehnat migratsiyasida iştirok etmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, davlatlar iqtisodiyoti uçun qöşimça mehnat resurslari va yangi imkoniyatlar yaratsa, ikkinçi tomondan, mehnat bozoridagi raqobat, ijtimoiy infratuzilmaga bosim hamda integratsiya bilan boğliq muammolarni ham keltirib çiqarmoqda.

Mulohaza

Har narsaning ikki tarafi bölganidek mehnat migratsiyasining ham yaxşi va yomon tomonlari bor. Misol uçun, işçi kuçi yetişmaydigan davlatlar uçun migrantlar iqtisodiy faollikni ta'minlovçi muhim resurs. Rasmiy iş bilan ta'minlangan migrantlar soliq va ijtimoiy tölovlar orqali Davlat byudjetiga ham hissa qöşadi. Bundan taşqari, migratsiya yangi bilim va tajriba almaşinuvi uçun ham imkoniyat yaratadi. Xorijda işlagan inson zamonaviy texnologiyalar, mehnat madaniyati, boşqaruv usullari va kasbiy könikmalarni özlaştirişi mumkin. Eng muhimi, mazkur tajriba öz yurtiga qaytgaç, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida samarali qöllanilişi mumkin.

Biroq masalaning ikkinçi tomoni şuki, migrantlar oqimi haddan taşqari tez köpaygan, mehnat bozori va ijtimoiy infratuzilma bunga tayyor bölmagan şaroitda iş örinlari uçun raqobat kuçayadi. Ayrim kasblarda iş haqi pasayişi, uy-joyga talab ortişi, maktab, boğça va tibbiyot muassasalariga yuklama köpayişi mumkin. Til va madaniy tafovutlar, jamiyatga moslaşişdagi qiyinçiliklar ham ijtimoiy keskinlikni yuzaga keltirişi ehtimoldan xoli emas.

Özbekistonda ham mehnat migratsiyasiga munosabat sifat jihatdan özgarib boryapti. Endi asosiy e'tibor fuqarolarni şunçaki xorijga işga yuborişga emas, balki ularni aniq iş örinlari, kasbiy malaka va til talablariga muvofiq tayyorlaşga qaratilmoqda.



2-noyabr kuni Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev raisligida ötkazilgan yiğilişda bu boradagi vazifalarga alohida e'tibor qaratildi.

Ma'lumotlarga köra, şu paytgaça tartibli mehnat migratsiyasi böyiça uçta davlat bilan hamkorlik qilingan bölsa, bugun ularning soni 27 taga yetib, yirik xorijiy iş beruvçilar soni qariyb 400 taga köpaygan. E'tiborli jihati, çet elda işlayotgan yurtdoşlarimiz nufusi sönggi ön yilda ikki baravar kamaygani holda, ularning oilalariga yuborayotgan mablağlari tört karra oşgan. Bu esa mehnat migratsiyasida miqdordan köra sifat, ya'ni yuqori malakali va daromadli iş örinlariga joylaşiş hal qiluvçi ahamiyat kasb etayotganini anglatadi.

Mehnat migratsiyasining iqtisodiy samarasi faqat pul ötkazmalari bilan ölçanmaydi. Uning ortida inson taqdiri, oila farovonligi, farzandlar tarbiyasi va ijtimoiy himoya kabi muhim masalalar turibdi.

Joriy yilning ötgan davrida xorijdan 1 mln. 116 ming kişi qaytgan bölsa, ularning orasida sanoat, quriliş, logistika va xizmat körsatiş sohalarida tajriba orttirgan mutaxassislar bor. Galdagi eng katta vazifa bu salohiyatdan samarali foydalaniş uçun qaytgan fuqarolardan yil yakunigaça 250 ming nafariga munosib iş topiş masalasidir.

Çunki xorijda orttirilgan tajriba öz yurtida işlatilmasa, uning iqtisodiy va ijtimoiy samarasi töliq namoyon bölmaydi. Qaytib kelgan insonni yana iş izlaşga majbur qiliş emas, balki uning malakasi va tajribasini mamlakat taraqqiyotiga yönaltiriş kerak.

Yana bir muhim jihat – xorijda işlagan davrda orttirilgan mehnat staji va pensiya huquqini tan oliş masalasi. Bugun yurtdoşlarimiz 40 dan ziyod davlatlarda qonuniy mehnat qilib, pensiya badallarini tölamoqda. Ikki tomonlama bitimlar esa faqat Qirğiziston, Ozarbayjon va Turkiya kabi davlatlar bilangina imzolangan, xolos. Uşbu faktning özi yoq boşqa mamlakatlar bilan ham şunday kelişuvlarga erişiş zaruratini körsatadi.

Demak, migratsiyani faqat işçi kuçining bir mamlakatdan boşqasiga harakati sifatida baholaş davri ötdi. Bugun u iqtisodiy taraqqiyot, demografik muvozanat, ijtimoiy barqarorlik va milliy manfaatlar bilan bevosita boğliq strategik jarayondir.

Nazorat qilinmaydigan migrantlar oqimi taraqqiyot ham, muammo ham emas. Muhimi – davlatning bu jarayonni qay darajada oqilona boşqara olişida. Bu esa odamlarni şunçaki iş bilan ta'minlaş emas, balki ularning mehnati qadrlanadigan, huquqlari himoya qilinadigan, kasbiy salohiyati röyobga çiqadigan şaroit yaratişda namoyon böladi. Şundagina migratsiya iqtisodiy zaruratdan taraqqiyot omiliga, mehnat resurslarining harakatidan inson kapitali yuksalişiga xizmat qiladigan jarayonga aylanadi.

Kobul TURSUNOV,
Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qömitasi raisi örinbosari.

Fraksiyalar hayoti

AHOLI IŞONÇI, HUQUQLARI USTUVORLIGI – MUHIM MEZON

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunçilik palatasidagi fraksiyalarining yiğilişlari bölib ötdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilişi rejalaştirilayotgan qator qonun loyihalari atrofliça körib çiqildi.

Fuqarolar mablağlari işonçli himoya qilinadi

Tadbirkorlar va işbilarmonlar harakati – Özbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yiğilişida "Köp kvartirali uylarni va boşqa köçmas mulk obyektlarini uluş kiritiş asosida quriş töğrisida"gi qonun loyihasi obdan muhokama qilindi.

Uşbu hujjat fuqarolarning uy-joy qurilişiga kiritgan mablağlarini işonçli huquqiy va moliyaviy mexanizmlar orqali himoya qilişga, bu borada zamonaviy, samarali va şaffof tizim yaratişga, mablağlarni qonunda belgilanmagan usulda jalb etiş holatlarining oldini olişga qaratilgan bölib, unda fuqarolarning uluşli qurilişga kiritgan mablağlarini kafolatli himoya qilinişi mexanizmlari belgilanmoqda.

Munozaralar davomida fraksiya a'zolari – Şuhrat Şarafutdinov, Yekaterina Smesova, Dilmurod Artiqov va Husan Yarqulov qonun loyihasining ayrim moddalari böyiça bir qator aniqlaştiruvçi savollar berdi. Mutasaddilar esa kötarilgan masalalar böyiça atrofliça tuşuntiriş berib ötdi.

Fraksiya a'zosi Nuriddin Sultonov qonun loyihasining zarurati haqida töxtalar ekan, uni ikkinçi öqişga tayyorlaş jarayonida mas'ul qömita tomonidan muayyan işlar amalga oşirilganini ta'kidladi. Savol-javoblardan söng qonun loyihasi qöllab-quvvatlandi.

Yiğilişda "Urbanizatsiya sohasi takomillaştirilişi munosabati bilan Özbekiston Respublikasining Şaharsozlik kodeksiga qöşimça va özgartirişlar kiritiş töğrisida"gi qonun loyihasining muhokamasi ham qizğin keçdi. U bilan urbanizatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda şaharlarning jamiyat va iqtisodiyot rivojidagi rolini oşiriş, aholining turmuş tarzini sifat jihatdan yangi bosqiçga kötariş hamda ekologik muhit va şahar infratuzilmasini yanada yaxşilaş, aholi punktlarini hududlarni kompleks rivojlantiriş asosida mutanosib rejalaştiriş şaharsozlikda asosiy prinsiplar sifatida belgilanyapti.

– Uşbu hujjat urbanizatsiya jarayonini samarali boşqariş, hududlarni mutanosib rivojlantiriş, şaharsozlik sohasida idoralararo hamkorlikni kuçaytiriş hamda aholi uçun qulay va ekologik barqaror yaşaş muhitini şakllantirişga xizmat qiladi, – dedi fraksiya a'zosi Odiljon Mamadaliyev. – Şu bois loyihaning dolzarbligi va ahamiyatini inobatga olgan holda, uni qöllab-quvvatladik.



Yiğilişda kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegişli qarorlar qabul qilindi.

Qurilişga kiritilgan uluslar kafolatli mustahkamlanmoqda

"Milliy tiklaniş" demokratik partiyasi fraksiyasi yiğilişida "Köp kvartirali uylarni va boşqa köçmas mulk obyektlarini uluş kiritiş asosida quriş töğrisida"gi qonun loyihasi körib çiqildi.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasi bilan köp kvartirali uylar va boşqa köçmas mulk obyektlarini uluş kiritiş asosida quriş sohasidagi munosabatlar tartibga solinmoqda. Unda uluşli qurilişga munosabatlari iştirokçilarining, davlat organlarining huquq va majburiyatlari, vakolatlari, özaro munosabatlariga oid qoidalar aniq belgilanyapti. Jumladan, bunday qurilişlarga jismoniy va yuridik şaxslarning pul mablağlarini jalb qilişga oid muhim qoidalar nazarda tutilyapti. Fuqarolarning uluşli qurilişga kiritgan mablağlarini kafolatli himoyalaş mexanizmlari belgilanmoqda. Ya'ni fuqarolarning pul mablağlari töğridan-töğri quruvçi ixtiyorida emas, balki banklarda oçiladigan "eskrou" hisobvaraği orqali saqlanadi. Quriliş belgilangan talablar asosida amalga oşirilib, obyekt foydalanişga topşirilganidan keyin mablağlar quruvçiga ötkaziladi.

Şuningdek, quruvçi faqat qonunda belgilangan talablarga javob bergan, Yagona axborot tizimida röyxatdan ötgan, vakolatli bank bilan boş bitim tuzgan va loyiha deklaratsiyasini e'lon qilgan taqdirdagina aholi mablağlarini jalb etiş huquqiga ega bölişi taklif etilyapti.

Bundan taşqari, uluşli qatnaşiş şartnomasi notarial tasdiqlanadi hamda belgilangan tartibda davlat röyxatidan ötkaziladi. Bu bir obyektning takroran sotilişi, noqonuniy şartnomalar tuzilişi kabi holatlarning oldini oladi. Şu bilan birga, qonun loyihasida qurilişni öz vaqtida yakuniga yetkazişga qaratilgan ta'sirçan mexanizmlar nazarda tutilmoqda. Xususan, zarur hollarda vakolatli bankni yoki quruvçini almaştiriş, qurilişning uzluksiz moliyalaştirilişini ta'minlaşga qaratilgan moliyaviy mexanizmlar yaratilmoqda. Bu esa qurilişning töxtab qolişining oldini oliş va uluşdorlar manfaatlarini işonçli himoyalaşga xizmat qiladi.

Yiğilişda qonun loyihasining "70 ga 30" qoidasi qizğin muhokama etildi. Unga köra, uy qurilişining kamida 70 foizi bank krediti, köpi bilan 30 foizi esa quruvçining öz mablaği hisobidan moliyalaştiriladi. Natijada banklarning roli kuçayadi, bank loyihani moliyaviy va texnik jihatdan nazorat qiladi, kreditni esa uy uluşdorlarga topşirilgandan keyingina qaytarib oladi.

Fraksiya a'zosi Farhod Zayniyevning aytişiça, bu qoida uluşdorni himoya qiliş mexanizmini yanada mustahkamlaydi. Ya'ni quriliş quruvçining moliyaviy ahvoliga boğliq bölib qolmaydi va yarim yölda töxtamaydi.

Muhokamadan söng qonun loyihasi qöllab-quvvatlandi.

Sud amaliyotidagi ayrim huquqiy böşliqlar bartaraf etiladi

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yiğilişida dastlab "Özbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga özgartiriş va qöşimçalar kiritiş töğrisida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Mazkur qonun loyihasi fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquq hamda qonuniy manfaatlarini sud orqali samarali himoyalaş, sud işlarini yuritişdagi ayrim huquqiy böşliq va qarama-qarşiliklarni bartaraf etişga qaratilgan.

Loyiha bilan Fuqarolik protsessual kodeksi hamda "Davlat boji töğrisida"gi va "Tölovga qobiliyatsizlik töğrisida"gi qonunlarga özgartiriş va qöşimçalar kiritiş taklif etilmoqda. Xususan, öz vazifalarini lozim darajada bajarmagan taqdirda sud boşqaruvçisiga tölanadigan haq miqdorini kamaytiriş, tölovga qobiliyatsizlik işlari doirasida qabul qilingan sud hujjatlari ustidan şikoyat beriş imkoniyatlarini kengaytiriş, iş qözğatiş haqidagi arizani körmasdan qoldiriş asoslarini belgilaş nazarda tutilmoqda.

Şuningdek, sudgaça sanatsiya qiliş, muvaqqat va sanatsiya qiluvçi boşqaruvçilarni vazifasidan ozod etiş tartiblarini aniqlaştiriş taklif etilgan. Fuqarolik holati hujjatlari yozuvlaridagi xatoliklarni sud tartibida aniqlaş bilan boğliq işlarni körib çiqişning protsessual tartibini belgilaş ham qonun loyihasining muhim jihatlaridan biridir.

Fraksiya a'zosi Zuhriddin Mavlonovning ta'kidlaşiça, taklif etilayotgan özgartirişlar sud amaliyotidagi muammolarni bartaraf etiş, fuqarolar va tadbirkorlarning huquqiy kafolatlarini mustahkamlaş, sudlar faoliyati samaradorligi hamda aholining odil sudlovga bölgan işonçini oşirişga xizmat qiladi.

Yiğilişda, şuningdek, texnik jihatdan tartibga soliş sohasidagi islohotlar, raqamlaştiriş va korrupsiyaning oldini oliş borasida amalga oşirilayotgan işlar yuzasidan parlament sörovini yuboriş masalasi ham muhokamaga tortildi. Sörovga keladigan javobda Jahon savdo taşkilotiga a'zo böliş jarayonida texnik jihatdan tartibga soliş tizimining xalqaro talablarga töliq mos bölişini ta'minlaş, sertifikatlaştiriş tartib-taomillarini soddalaştiriş, raqamlaştiriş işlarini jadallaştiriş borasida amalga oşirilayotgan işlar yuzasidan asoslantirilgan tuşuntiriş beriş zarurligi qayd etildi.

Yiğiliş yakunida deputatlar kun tartibidagi masalalar yuzasidan öz fikr-mulohazalarini bildirib, ularni qöllab-quvvatladi.

Dolzarb qonun loyihalari muhokamasi

Özbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yiğilişida dastlab "Köp kvartirali uylarni va boşqa köçmas mulk obyektlarini uluş kiritiş asosida quriş töğrisida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, loyiha birinçi va ikkinçi öqiş oraliğida takomillaştirilib, unda axborot subyektlari, vakolatli bank, developer, ixtisoslaşgan quruvçi, loyiha deklaratsiyasi, uluşdor va uluşli quriliş kabi tuşunçalarga aniq huquqiy ta'riflar berilgan.

Muhokamada deputatlar quriliş sohasida tadbirkorlik subyektlari uçun belgilanayotgan huquqiy talablar bilan bir qatorda, fuqarolarning uy-joy sotib olişdagi huquqlari va mablağlari xavfsizligini ta'minlaş masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Xususan, fraksiya a'zolari Anvarxon Temirov va Şarofiddin Nazarov qonun loyihasining 41-moddasida belgilanayotgan moliyalaştiriş tartibi yuzasidan fikr va takliflarini bildirdi. Unga köra, quriliş işlari umumiy qiymatining köpi bilan 30 foizi developer va ixtisoslaşgan quruvçining öz mablağlari, kamida 70 foizi esa loyihaviy moliyalaştiriş asosida amalga oşirilişi nazarda tutilmoqda.



Şuningdek, amaliyotda bir xonadonning bir neçta fuqaroga rasmiylaştirilişi yoki quriliş uçun tölangan mablağlarning qaytarilmasligi bilan boğliq holatlar ham muhokama markazida böldi. Deputat Sayyora Imomova qonun loyihasida bunday holatlarning oldini oliş mexanizmlari qay darajada aks etgani bilan qiziqdi. Fraksiyaning yana bir a'zosi Dilbar Mamajonova esa kadastr organlari zimmasiga yuklatilayotgan vazifalarga aniqlik kiritişni söradi.

Mas'ullarning tuşuntirişlaridan söng qonun loyihasi qöllab-quvvatlandi.

Yiğilişda, şuningdek, "Yaylovlar töğrisida"gi qonun loyihasi ham atrofliça körib çiqildi. Unda yaylovlardan foydalaniş yönalişlarini kengaytiriş, çorvaçilik bilan bir qatorda ekoturizm, asalariçilik va dorivor ösimliklar yetiştirişni rivojlantiriş taklif etilmoqda.

Aholi xonadonlarining yaylovlardan qonuniy foydalanişini ta'minlaş maqsadida jamoat yaylovlari institutini joriy qiliş ham közda tutilgan. Bundan taşqari, deputatlar migratsiya xizmatlari faoliyatini takomillaştiriş, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarini sud orqali samarali himoya qilişga qaratilgan qonun loyihalarini ham körib çiqdi.

Yakunda kun tartibidagi masalalar yuzasidan elektorat manfaatlaridan kelib çiqqan holda tegişli qarorlar qabul qilindi.

Yaylovdan foydalaniş yönalişlari kengaytirilmoqda

Özbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yiğilişida "Yaylovlar töğrisida"gi qonun loyihasi körib çiqildi.

Qonun loyihasi bilan yaylovdan foydalaniş yönalişlari kengaytirilib, çorvaçilikdan taşqari ekoturizm, asalariçilik, dorivor ösimliklar yetiştiriş kabi yangi daromadli yönalişlarda ham faoliyatga ruxsat berilmoqda. Şuningdek, yaylovlardan foydalanişning yangi normalari va normativlarini joriy qiliş, ularni toifalarga ajratiş taklif etilmoqda. Yana muhim jihatlardan biri – qonun loyihasida quduqlarni gidrogeologik xulosalar asosida belgilangan maqbul joylarda qaziş va ulardan foydalanişning aniq tartibi nazarda tutilmoqda. Aholi xonadonlarining yaylovlardan qonuniy va qulay foydalanişini ta'minlaş maqsadida jamoat yaylovlari institutini joriy etiş ham taklif qilinmoqda.

– Qonun loyihasida yaylovlarni raqamli hisobga oliş, ularning holatini muntazam kuzatib boriş va nazorat qilişga ham alohida e'tibor qaratilgan, – deydi fraksiya a'zosi Oybek Otamurodov. – Jumladan, "E-yaylov" elektron platformasini işga tuşiriş, monitoring jarayonlarida sun'iy intellekt, geoaxborot texnologiyalari va sun'iy yöldoş ma'lumotlaridan foydalaniş nazarda tutilmoqda. Bu orqali yaylovlar holatini baholaş, degradatsiya jarayonlarini öz vaqtida aniqlaş va ularning oldini oliş çoralarini belgilaş imkoniyati kengayadi.

Muhokama davomida qonun loyihasida nazarda tutilgan normalarning yaylovlar degradatsiyasining oldini oliş, tuproq va ösimlik qoplamini saqlaş, biologik xilmaxillikni muhofaza qiliş, çorvaçilikning ozuqa bazasini mustahkamlaş hamda mahalliy aholi uçun qöşimça iqtisodiy imkoniyatlar yaratişdagi ahamiyatiga e'tibor qaratildi.

Yiğilişda bildirilgan fikr va takliflar atrofliça muhokama qilinib, qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qöllab-quvvatlandi.

«Xalq sözi».

Islohotlar – mening taqdirimda

XALQ ĞAMIDAN ÖZGA ĞAMI YÖQ

Paxtaçilikda zabt etilgan zafar munosabati bilan Prezidentimiz yöllagan tabrik bizning jamoa dehqonlarini ham benihoya quvontirdi. Sababi, qutlovda xöjaligimiz hosildorlikni 110 sentnerga yetkazgan ikkita fermer xöjaligining biri sifatida alohida tilga olindi. "Prezidentimiz bizni bilarkan!" deya xursand bölişdi xöjaligimiz a'zolari.

Yaşirib nima qilamiz: ilgari paxta yiğim-terimiga ikki-uç oy vaqt ketardi. Bu yil barakali hosilni yiğiştirib oliş uçun 10 – 12 kun kifoya qildi. Paxtaning hammasini texnika yordamida yiğiştirib oldik.

Esingizdami, mustaqillikning dastlabki yillarida paxtani maşinalarda terib oliş yöqola boşlagandi. Nima emiş, kombaynda terilganda sifat yöqolarmiş?!. Prezidentimizga ming rahmat, mexanizatsiya dehqonning oğirini yengil qilişi mumkinligini hayotda isbotlab berdilar. Çigitni yerga qadab, hosilga kirgunça barça yumuşlarni ado etiş böyiça tizim yaratildi, tartib örnatildi. Ana şunday oqilona siyosat tufayli hosil yetiştirişda asosiy figura dehqon böldi.

Prezidentimiz tabrigidan söng fermer xöjaligimizda çinakam töy bölib ketdi. Döstlik tumanidagi "Eşniyoz bobo" fermer xöjaligi rahbari Murtazoqul Bötayev şogirdim hisoblanadi. Bizni tabriklagani u ham keldi. Uning dalalarida gektaridan 96,2 sentnerdan hosil olinibdi. Biz ham şogirdni bu yutuq bilan tabrikladik. Murtazoqul yetiştirilgan hosilni bir haftada yiğiştiribdi. Daromad ham şunga yaraşa. 2,7 milliard söm tuşumning 1,6 milliardi sof foyda bölibdi.

Bugungi dorilamon kunlarning qadriga yetiş uçun ötmişni unutmasligimiz kerak. Qarang, ilgari paxtadan olingan daromadimiz 1 milliard sömga yetar-yetmas bölardi. Bu yil 4 milliard söm bölişi kutilyapti. Mazkur yutuqlarimiz Yangi Özbekistonni yaratiş yölidagi muvaffaqiyatimizga dalolatdir.

Prezidentimiz hayotga tatbiq etayotgan islohotlarning tub zaminida, avvalo, inson farovonligi, uning izzat-hurmatini joyiga qöyiş maqsadi yotadi. Bugungi paxta dalalariga nazar taşlang. Samarali mehnat natijasida ona zamin butun saxovatini dehqonga hadya qilgandek. Ilgari 90 santimetrlik sxemada çigit ekkan bölsak, endi 76 santimetr ölçovida qöşqator uruğ qadadik. Hosil tuplardan olinadi, degan hikmatning



natijasini bodroqdek oçilgan paxta dalalari misolida kördik.

Aslida bugungi holatni avvalgi manzara bilan taqqoslasak, yer va osmonça farqni köramiz. Butun Özbekiston "total safarbarlik"ka da'vat qilinar, haşarçilarni dalada işlatiş uçun ketgan xarajatning özi qimmatga tuşardi. Şaharda aholi xizmatida bölgan avtobuslar odam taşişga yuborilar, ularning örnini heç narsa bosolmasdi. Yiğim-terimga talabalar, harbiylar, mahalla vakillari, hatto nuroniylar safarbar etilardi. Haşarçilarga moslaştirilgan baraklar xarob ahvolda bölib, odamlar salomatligiga kafolat yöq edi.

Kundalik ma'lumot körsatkiçlari yarim tunda paxta qabul qiliş punktlarida aniqlanardi. U zamonlarda gektaridan 40 sentner hosildorlikka erişgan jamoalar yuqori örinlarda tursa-da, dehqonning kosasi oqarmasdi.

Prezidentimiz uzoqni köra bilişi va qat'iyati tufayli bugungi ajoyib natijalarga erişdik. Davlatimiz rahbari televideniye orqali gapirib bergandi: Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon "Hosildorlikni 80 sentnerga yetkazamiz" degan özbek dehqoni söziga hayratlanib "Axir şaroitlarimiz bir-biriga yaqin-ku, bu odam nima deyapti?" deb sörabdi. Holbuki, yurtimizning ilğor fermerlari 100 sentnerlik marradan özib ketişi oddiy hol edi.

Davlatimiz rahbari xalq bilan uçraşganlarida "Ilm, ta'lim, muallim" sözlarini aytganida faqat maktabni nazarda tutmagan. Hamma işlarimizda, hamma sohada ilmiy yondaşuv, innovatsiya yaqin kömakçimiz bölişi nazarda tutilgan. Yangi usulda çigit ekib, hosil töplaganimizda ilğor texnologiyalar bizga qanot böldi. Endilikda ğöza çopiğida, ötoqda, yaganada, ekinni suğorişda juda katta tejamkorlikka erişyapmiz. Közlanganidan yuqori hosilni dehqonlar göyo mavjud dalalarimizga qöşimça maydon qöşilganligi bilan qiyoslaşyapti.

Yetiştirilgan hosilni sotişda monopollaşuvdan qutulganimiz ajoyib iş böldi. Yurtboşimiz yaratgan erkinlik bizga katta imkoniyatlar berdi. Paxta xarid narxlari ham barçamizni mamnun etdi. Bizdan söraşardi: "Milliardlab pulni sandiqqa solasizmi!" deyişganda unga javoban aytardik: "Sarmoyaning asosiy qismini yangi iş örni yaratişga sarflayapmiz. Bu orqali daromadimizga yana baraka kiradi".

Dala işlarida mehnat qilayotganimga 46 yil bölgan bölsa, şunça yil davomida bu yilgiday rekord hosilni körmagan edim. Sportçilarimiz jahon arenalarida yangi rekordlarni qayd etayotgan pallada biz ham ortda qolmaslikka intilyapmiz.

Uzoq vaqt Sirdaryo va Jizzax viloyatlari mamlakat miqyosida aytganda paxtaçilikda oxirida yurardi. Bu yil viloyatimiz erişgan natijalar ham bizning jamoa yutuqlari tasodif emasligini körsatdi. Bu yilgi yiğim-terim mavsumida viloyat böyiça kuniga 300 ta terim maşinasi işlab turdi. Hosilning hammasi texnika yordamida terib olindi.

2026-yilda erişgan natijalarimiz Yangi Özbekiston imkoniyatlarini namoyon etganidan taşqari kelgusida qölga kiritiladigan yutuqlarimiz uçun mustahkam zamin bölib xizmat qiladi.

Prezidentimiz har bir taşabbusi, har bir siyosatida faqat xalqimiz hayoti yaxşilanişi, odamlar roziligini ta'minlaş haqida öylaydi. Bunday ğamxörlikka javoban har qança fidoyilik körsatsak, yurtimizning gullab-yaşnaşi uçun ğayrat-şijoat namunalarini namoyon etsak arziydi.

Anorboy EŞMATOV,
Jizzax viloyatining Paxtakor tumanidagi «AnvarA» fermer xöjaligi rahbari, Özbekiston Qahramoni.

Endilikda yonğin xavfsizligi qoidalarini buziş oqibatida inson hayoti yoki soğliğiga zarar yetkazgan şaxsdan moddiy va ma'naviy zararni qoplaş bilan birga, sud qarori asosida qöşimça tovon ham undirilişi mumkin.

EZGU ĞOYADAN FAROVON HAYOT SARI

1

Inson qadri qayerdan boşlanadi?

Öylaşimça, inson qadri, avvalo, uning sözi tinglanişidan, inobatga olinişidan boşlanadi. 2016-yil 24-sentyabrda işga tuşgan Virtual qabulxona, keyinçalik har bir şahar va tumanda oçilgan Xalq qabulxonalari aynan şu maqsadda tuzildi. Odamlar ilk bor arizasi tartibsiz idoralar kabinetida yöqolib ketmasligini, unga javob berilişini his qildi. Bu kiçik köringan bölsa-da, jamiyatda işonç muhitini yaratgan qadam edi.

Yana bir misol xorijga çiqiş bilan boğliq. Ançа yillar davomida fuqarolarimiz MDHdan taşqaridagi mamlakatlarga boriş uçun içki işlar idorasidan çiqiş ruxsatnomasi olişi şart edi. Rad etilgan odam çetga qonuniy yöl bilan çiqa olmasdi. Sobiq ittifoqdan qolgan bu tartib 2019-yil 1-yanvardan bekor qilindi, uning örniga biometrik pasport joriy etildi. Bugun talaba xorijdagi anjumanga, tadbirkor körgazmaga bemalol uçadi. Bir paytlar buning uçun haftalab kutiş kerakligini yoşlarimizning köpçiligi bilmaydi ham.

Poytaxt “propiska”si masalasini ham eslab ötişimiz mumkin. 2011-yildagi qonunga köra Toşkent şahri va viloyatida doimiy röyxatdan ötiş faqat 12 toifadagi fuqarolarga ruxsat etilgan edi. Viloyatdan kelgan hamyurtlarimiz poytaxtda uy sotib ololmas, ba’zan işga ham kirolmasdi. Odamlar bu tartibni “AQŞ vizasini olişdan ham qiyinroq edi”, deb eslaydi. 2017-yildan çeklovlar bosqiçma-bosqiç yumşatildi, 2020-yildan esa Toşkentda “propiska”siz uy-joy sotib oliş mumkin böldi. Bu masala nafaqat huquqiy, balki axloqiy masala edi: bir mamlakat fuqarolari öz poytaxtida teng huquqli bölişi kerak.

Inson qadrining uluğlanişiga yana bir misol borki, ehtimol u eng ta’sirlisidir. Köpçiligimiz kuzakda maktablar, auditoriyalar va idoralar böşab, huvullab qolişini yaxşi eslaymiz. Oradan yillar ötib, 2022-yil 1-martda Xalqaro mehnat taşkiloti Özbekiston paxtasi tizimli bolalar mehnati va tizimli majburiy mehnatdan xoli ekanini e’lon qildi. Bu xulosa 2021-yilgi terim mavsumida terimçilar bilan ötkazilgan qariyb 11 ming sörovnomaga asoslangan. Şundan söng xalqaro koalitsiya özbek paxtasiga qarşi “boykot”ni töxtatdi.

Raqamning kölamini tasavvur qiliş uçun birgina ma’lumot kifoya: har yili terim mavsumiga qariyb ikki million kişi jalb etilardi. Ilgari ularning orasida öz xohişi bilan emas, buyruq bilan dalaga çiqqanlar oz emasdi. Bugun asosiy tamoyil özgardi: terimga çiqiş buyruq emas, mehnat şartnomasi va haq evaziga bölişi kerak.



Bu yerda gap faqat eksport haqida emas. Öqituvçi dars ötadigan, şifokor bemor qabul qiladigan, talaba öqiydigan böldi. Har kim öz işini qiladigan jamiyat inson qadrini hurmat qiladigan jamiyatdir.

Raqamlar ortidagi taqdirlar

Ijtimoiy sohadagi özgarişlarni raqamsiz tasvirlaş qiyin. Lekin har bir raqam orqasida aniq oila, aniq bola, aniq taqdir turganini unutmaslik kerak.

Dastlab kambağallikdan boşlaymiz. Uzoq yillar bu söz rasmiy doiralarda aytilmasdi. Bugun u oçiq tan olinadi, ölçanadi va qisqaradi. Jahon banki bilan birgalikda xalqaro uslubda ötkazilgan tahlilga köra 2024-yilda kambağallik darajasi 11 foizdan 8,9 foizga tuşdi. Bir yilda kambağallar soni qariyb 719 ming nafarga kamaydi. Davlatimiz rahbarining 2025-yil dekabrdagi Murojaatnomasida bu körsatkiç 5,8 foiz deb keltirildi. Ahamiyatli tomoni şuki, asosiy urğu nafaqa tarqatişga emas, bandlik, tadbirkorlik va tomorqadan samarali foydalanişga qaratildi. Insonni boqimanda qiliş emas, unga oyoqda turib olişga imkon beriş ham qadrning bir körinişidir.

Özgariş hududlarda ham seziladi. 2024-yilda Buxoro viloyatida kambağallik 11,8 foizdan 8,7 foizga, Samarqandda 10,5 foizdan 7,5 foizga, Qoraqalpoğistonda 13,6 foizdan 10,8 foizga tuşdi. Şu yili aholi jon boşiga real daromadlar 10,7 foiz ösib, oyiga örtaça 2,1 million sömga yetdi. Albatta, bu raqamlar hali hamma oilada farovonlik bor degani emas. Lekin yönaliş töğri ekani aniq.

> **Öylaşimça, inson qadri, avvalo, uning sözi tinglanişidan, inobatga olinişidan boşlanadi. 2016-yil 24-sentyabrda işga tuşgan Virtual qabulxona, keyinçalik har bir şahar va tumanda oçilgan Xalq qabulxonalari aynan şu maqsadda tuzildi. Odamlar ilk bor arizasi tartibsiz idoralar kabinetida yöqolib ketmasligini, unga javob berilişini his qildi. Bu kiçik köringan bölsa-da, jamiyatda işonç muhitini yaratgan qadam edi.**

Ta’limdagi özgariş yanada közga taşlanadi. 2016-yilda bolalarning atigi 27 foizi boğçaga borardi, bugun bu körsatkiç 78 foizga yetdi. Oliy ta’limda manzara bundan ham taassurotli: 2016-yilda 18 yoşdan 23 yoşgaça bölgan yigit-qizlarning atigi 7,2 foizi talaba bölgan bölsa, 2024/2025 öquv yili boşida qamrov 47,7 foizga çiqdi. Bugun mamlakatdagi 200 dan ortiq oliy ta’lim muassasalarida qariyb 1,7 million yoş yigit-qizlar tahsil olyapti.

Qamrov öz-özidan paydo bölmaydi. Uning ortida bino, örin va eng asosiysi, odam turadi. Maktabgaça ta’limdagi tarbiyaçilar soni 2017-yildagi 58,4 mingdan bugun 179,5 mingga yetdi. 2024 va 2025-yillarda 1 379 ta maktab qurildi va ta’mirlandi, natijada 400 mingdan ortiq qöşimça öquvçi örinlari yaratildi. Bu tor sinfxonalar va köp smenali öqiş muammosi asta-sekin kamayayotganini bildiradi.

Men bu raqamlarni auditoriyada ham sezaman. Bir paytlar talabalik, asosan, şahar yoşlariga nasib etardi. Hozir jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida dars berar ekanman, uzoq tumanlardan, oddiy oilalardan çiqqan talabalar soni köpayganini köraman. Ularning köpçiligi oilada birinçi bölib oliy ma’lumot olayotgan farzandlar. “Ijtimoiy lift” degan tuşunça aynan şu demakdir.

Uçinçi yönaliş – davlat xizmatlari. Ilgari bitta ma’lumotnoma uçun bir neça idorani aylaniş, navbatda turiş odatiy hol edi. Bugun yagona portalda 760 dan ortiq davlat xizmatlari körsatilmoqda, faqat 2025-yilning birinçi yarmida u orqali 16 milliondan ortiq xizmat körsatilgan. 2017-yildan buyon fuqarolardan talab qilinadigan 130 dan ortiq hujjat turlari bekor qilindi.

Xalqaro baholar ham şuni tasdiqlaydi. BMTning elektron hukumat rivojlaniş indeksida Özbekiston 2018-yildagi 87-örindan 63-öringa kötarildi. Bugun tadbirkorlik subyektini röyxatdan ötkaziş 10-15 daqiqa vaqt oladi xolos.

Birovlar buni texnik masala deb öylaşi mumkin. Ammo har bir bekor qilingan “spravka” odamning tejalgan vaqti, asralgan asabi va poraxörga berilmagan pulidir. Idora bilan fuqaro orasidagi masofa qisqargan sari korrupsiya uçun joy ham toraydi.

Qadrning haqiqiy ölçovi

Albatta, hamma muammo hal etildi deyiş adolatdan bölmas. Ta’lim qamrovi kengaydi, endi uning sifati haqida köproq gapirişimiz kerak. Diplom olgan yoşning iş topa olişi, boğçadagi tarbiyaning saviyasi ham qamrov foizi kabi muhim.

Ikkinçi masala mentalitet bilan boğliq. Qonun özgardi, tizim raqamlaşdi, lekin ayrim idoralarda fuqaroga “murojaat qiluvçi” deb emas, “taşviş tuğdiruvçi” deb qaraş hali ham uçraydi. Bunday fikrlaşdan kutiladigan zarar katta. Davlat bir kunda köp narsani özgartirişi mumkin, lekin xodimning içki madaniyati sekinroq özgaradi. Şuning uçun davlat xizmatidagilarni tayyorlaşda axloq, muloqot madaniyati va korrupsiyaga qarşi turiş könikmalari asosiy örinda bölişi kerak.

Uçinçidan, islohotlar haqidagi ma’lumot odamlarga tuşunarli tilda yetib borişi zarur. Hisobotdagi foiz körsatkiçlari fuqaroga köp narsa anglatmaydi. Unga öz huquqidan qanday foydalaniş, qayerga murojaat qiliş muhimroq. Bu yerda ommaviy axborot vositalarining işi katta: jurnalist nafaqat yutuqlarni, balki hal etilmagan muammolarni ham xolis yoritişi kerak. Tanqiddan qörqmaydigan jamiyat tezroq tuzaladi.

Xöş, “Inson qadri uçun” tamoyili qaçon hayotga köçadi? Qaçonki, fuqaro idoraga hadik bilan emas, işonç bilan kirsa, ona bolasining kelajagi taniş-bilişga emas, ilmiga boğliqligidan köngli xotirjam bölsa, yoş yigit omadni çetdan emas, öz yurtidan izlasa...

Yölning katta qismi bosib ötildi. Ammo manzil hali oldinda.

Beruniy ALIMOV,
Özbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti professori, filologiya fanlari doktori (DSc).

Mediaforum

SÖZ VA AXBOROT DÖSTONA ALOQALARNI MUSTAHKAMLAŞGA XIZMAT QILADI

Keça Toşkentda III Özbekiston – Rossiya mediaforumi öz işini boşladi. Özbekiston Milliy axborot agentligi va Rossiyaning TASS axborot agentligi hamkorligida ötkazilayotgan mazkur tadbirning asosiy maqsadi özgaruvçan axborot maydonida professional aloqalarni mustahkamlaş, raqobatbardoş milliy kontent yaratiş va istiqbolli qöşma loyihalarni işga tuşirişdir.



Forumda Özbekiston va Rossiya davlat idoralari, media-xoldinglar va IT kompaniyalar vakillari bölgan 200 dan ortiq delegatlar iştirok etmoqda.

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Kommunikatsiyalar departamenti boşliği – Prezident matbuot kotibi Şerzod Asadov tadbirning oçilişida ta’kidlaganidek, Özbekiston va Rossiya rahbarlarining özaro işonç hamda döstlikka asoslangan muntazam muloqoti mamlakatlarimiz örtasidagi köp qirrali hamkorlik, jumladan, media va kommunikatsiyalar sohasidagi aloqalar rivojiga kuçli sur’at bağişlamoqda. Muhimi, axborot xurujlari va yolğon xabarlar mamlakatlarimiz hamda xalqlarimiz örtasida işonçsizlik va kelişmovçiliklarga sabab bölmasligi kerak. Aksinça, söz va axborot özaro anglaşuv, hurmat va döstona aloqalarni mustahkamlaşga xizmat qiliş zarur.

TASS boş direktori Andrey Kondraşov Rossiya – Özbekiston munosabatlari mustahkam poydevorga ega ekanini ta’kidladi. Uning fikriça, ommaviy axborot vositalari jamoatçilik muloqotining faol işturokçisiga hamda davlatlar, muassasalar va odamlar örtasidagi muhim aloqa kanaliga aylanayotgan bugungi kunda ikki mamlakat media vakillari özaro axborot almaşiş uçun barça imkoniyatlarga ega.

Forum doirasida turizm, sport va gumanitar almaşinuvlarni rivojlantirişda medianing örni, raqamli asrda ommaviy axborot vositalarining kelajagi, axborot iste’molining yangi usullari va manbalari, mediada an’anaviy qadriyatlar va kelajak nigohining uyğunligi kabi dolzarb masalalar muhokamalar markazida böldi. Forum kun tartibidan kibermakonda axborot xavfsizligi va bolalarni himoya qiliş böyiça ixtisoslaştirilgan seminar ham-da mediata’lim masalasiga bağişlangan alohida seksiya ham örin olgan.

Tadbir faqat muhokamalar bilan çeklanib qolmadi. Asosiy e’tibor amaliy tajriba almaşiş va yangi taşabbuslarni ilgari surişga qaratildi. Taşkilotlar örtasida töğridan-töğri V2V muzokaralari ötkazilib, yangi axborot loyihalari va kelişuvlar muhokama qilindi.

«Xalq sözi».

11-noyabr – Özbekiston kasaba uyuşmalari kuni

JAMOA ŞARTNOMASI – MANFAATLAR KAFOLATI

Jamoa şartnomasi – mehnat munosabatlarini tartibga soliş, xodimlar huquqlari va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qiliş, ular uçun munosib iş va turmuş şaroitlarini yaratişning muhim huquqiy mexanizmi hisoblanadi. Uşbu hujjat orqali qonunçilikda belgilangan kafolatlar mustahkamlanişi bilan birga, xodimlar uçun qöşimça imtiyoz hamda yengilliklar nazarda tutiladi. Eng muhimi, unda belgilangan çora-tadbirlar mehnatkaşlarning moddiy farovonligini oşiriş, daromadlarini köpaytiriş va ularni ijtimoiy qöllab-quvvatlaşga xizmat qiladi.

Uşbu jihatlarni inobatga olgan holda, Özbekiston agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyuşmasi Respublika kengaşi öz tizimidagi korxona, taşkilot va muassasalar, şuningdek, fermer xöjaliklarida jamoa şartnomalarini tuziş, ularning mazmunan mukammalligi hamda belgilangan majburiyatlarning töliq bajarilişini ta’minlaşga ustuvor ahamiyat qaratmoqda.

Aniqroq aytadigan bölsak, jamoa şartnomalarida xodimlar uçun qulay mehnat şaroitlarini yaratiş, xavfsizlik talablariga rioya etiş, iş vaqti hamda dam oliş rejimini takomillaştiriş, moddiy rağbatlantiriş, soğlomlaştiriş, şuningdek, xodimlar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy qöllab-quvvatlaşga qaratilgan çora-tadbirlar öz ifodasini topmoqda. Bu jamoa şartnomalarining hayotiy ahamiyatini oşiriş, mehnat jamoalarida ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaş hamda xodimlarning kasaba uyuşmalariga bölgan işonçini yuksaltirişda muhim ahamiyat kasb etayotir.

– Jamoa şartnomasi muhim lokal hujjat bölib, kasaba uyuşma qömitasi va iş beruvçi örtasida imzolanadi, – deydi Özbekiston agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyuşmasi Respublika kengaşining Mehnatkaşlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qiliş bölimi mudiri Şohida Begimqulova. – Unda iş haqining öz vaqtida tölanişidan tortib, mehnat xavfsizligini ta’minlaş, uzaytirilgan hamda qöşimça ta’tillar beriş, xodimlarga uy-joy qurilişi va uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni xarid qilişlari uçun foizsiz ssudalar ajratiş, işçi-xodimlar va ular oila a’zolarining salomatligini mustahkamlaş, moddiy yordam körsatiş kabi masalalar öz aksini topadi.

> ***Özbekiston agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyuşmasi tizimidagi korxona, taşkilot, muassasalar hamda fermer xöjaliklarida joriy yilda amalga oşirilgan işlar doirasida mehnatkaşlarni ijtimoiy qöllab-quvvatlaş böyiça 12,7 mlrd. söm mablağ sarflandi. Natijada 18 696 nafar xodim va ularning oila a’zolari turli yordamlar bilan qamrab olindi. Jumladan, kam ta’minlangan yoş oilalarga 3,06 mlrd. söm, 210 ta oilaga uy-joy va zarur tovarlar xaridi uçun 1,84 mlrd. söm miqdorida foizsiz ssudalar ajratildi. Iqtidorli, kam ta’minlangan va çin yetim talabalarning 220 nafariga şartnoma tölovlarini qoplaş uçun 1,67 mlrd. söm yönaltirildi.***

Şu örinda yana bir muhim jihatni aytib ötiş lozim. Jamoa şartnomasida qonunçilikda belgilangan kafolatlardan taşqari, xodimlar uçun qöşimça imtiyozlar ham nazarda tutilişi mumkin. Xususan, qiyin ahvolga tuşib qolganlarga moddiy yordam körsatiş, mehnatkaşlar farzandlarining ta’lim xarajatlarini qoplaş, sanatoriylarda imtiyozli ravişda salomatligini mustahkamlaş, uy-joy ijarasi xarajatlarini qisman qoplaş şular jumlasiga kiradi.

Kasaba uyuşmasi esa uşbu talablar bajarilişi yuzasidan jamoatçilik nazoratini amalga oşirib, xodimlarning huquq hamda manfaatlari himoyasi böyiça zarur çoralar körilişiga kömaklaşadi.

Özbekiston agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyuşmasi tizimidagi korxona, taşkilot, muassasalar hamda fermer xöjaliklarida joriy yilda amalga oşirilgan işlar doirasida mehnatkaşlarni ijtimoiy qöllab-quvvatlaş böyiça 12,7 mlrd. söm mablağ sarflandi. Natijada 18 696 nafar xodim va ularning oila a’zolari turli yordamlar bilan qamrab olindi. Jumladan, kam ta’minlangan yoş oilalarga 3,06 mlrd. söm, 210 ta oilaga uy-joy va zarur tovarlar xaridi uçun 1,84 mlrd. söm miqdorida foizsiz ssudalar ajratildi. Iqtidorli, kam ta’minlangan va çin yetim talabalarning 220 nafariga şartnoma tölovlarini qoplaş uçun 1,67 mlrd. söm yönaltirildi.

Bu raqamlar jamoa şartnomalari orqali amalga oşirilayotgan işlar kölamini körsatibgina qolmay, uşbu lokal hujjatlarning xodimlar hamda ularning oilasi hayotida muhim ahamiyat kasb etib, moddiy ahvoli yaxşilanayotgani ham namoyon qiladi. Zero, mamlakatimizda Prezidentimiz rahbarligida inson qadrini uluğlaş borasida amalga oşirilayotgan işlar natijasida mehnat ahli qadr topayotir.

Rahim ŞERQULOV
(«Xalq sözi»).

MAHALLANING TUNU KUN IŞLAYDIGAN MASKANI

Şofirkon tumanidagi Boboato mahallasining asosiy köçasida bundan olti oyça muqaddam bölgan kişi endilikda uni tanimay qolişi tayin. Bu yerda “Boboato Avenue-7/24” zamonaviy xizmat körsatiş va dam oliş köçasi barpo etilgaç, hudud tamoman özgaça qiyofa kasb etdi.

Imkoniyat

Mazkur göşada umumiy qiymati 1,6 mlrd. söm bölgan loyiha amalga oşirildi. Törtta xizmat körsatiş inşooti, favvora, bolalar öyin maydonçasi, oçiq havodagi vorkaut maydoni, sayr qilişga möljallangan yölaklar, zamonaviy tungi yoritiş çiroqlari – bularning barçasi mahallaning me’moriy qiyofasiga özgaça körk berdi. Endilikda bu yerda aholining dam olişi, yoşlar böş vaqtlarini mazmunli ötkazişi uçun barça şart-şaroit mavjud. Xizmat körsatiş şoxobçalari esa odamlar taşvişini yengillaştirişga şay.

Aytiş örinliki, Şofirkon tumanida mahalla va qişloqlar infratuzilmasini rivojlantiriş, “Inson qadri uçun” tamoyili asosida aholiga munosib turmuş şaroiti yaratiş borasidagi işlar kölami tobora kengaymoqda.

Istam IBROHIMOV
(«Xalq sözi»).

Raqamlaştiriş

IŞLAB ÇIQARUVÇI UÇUN HAM, ISTE’MOLÇI UÇUN HAM ÖNĞAY

Sirdaryo viloyatida elektr energiyasini nazorat qiliş hamda hisobga olişning avtomatlaştirilgan tizimi joriy etilmoqda.

– Asosiy maqsad – isrofgarçilik va tarmoqqa noqonuniy ulanib olişga butkul barham beriş hamda tölovni qat’iy tartibga soliş, – deydi “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati Sirdaryo hududiy filiali bölim boşliği Sodiqjon Berdibekov. – Şu kungaça viloyatimizdagi 222 mingdan ortiq iste’molçilar bilan zamonaviy hisoblagiçlar orqali hisob-kitob tizimi yölga qöyildi. Şuningdek, transformator punktlari zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Bu xizmat körsatiş sifatini yanada oşiradi.

Kelgusida sohada sun’iy intellekt texnologiyalari yanada ustuvor böladi va har bir kilovatt-soat elektr energiya uçun tölov oldindan kafolatlanadi. Bu işlab çiqaruvçi uçun ham, iste’molçi uçun ham birdek önğaylik demakdir.

Ahmadali ŞERNAZAROV
(«Xalq sözi»).

Mamlakatimizda isitiş mavsumida ehtiyojmand oilalarga bir martalik 1 million söm moddiy yordam beriladi.

Xalq sözi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunçilik palatasi Kengaşi
Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengaşi

Boş muharrir Ötkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan röyxatga olingan. Naşr indeksi – 429. Buyurtma G-1142. 17 558 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qoğoz biçimi A-2. Bahosi kelişilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab oliş uçun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qölyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilişi uçun obunani rasmiylaştirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli çop etilişiga “Şarq” naşriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toşkent şahri,
Islom Karimov köçasi, 55-uy.
Navbatçi muharrir H. Qarshiyev.
Musahhih S. Islomov.

“Şarq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon köçasi, 41. ÖzA yakuni – 23.50 Topşirildi – 00.50 1 2 3 4 5 6